

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**TO‘RAYEV ULUG‘BEK MURTAZOYEVICH**

**IQLIM O‘ZGARISHI DAVRIDA SUV RESURSLARINI  
INTEGRALLASHGAN HOLDA BOSHQARISHNING ADAPTATSION-  
MODERNIZATSIYALASHGAN MEXANIZMI  
(QASHQADARYO DARYOSI HAVZASI MISOLIDA)**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical  
sciences**

**To'rayev Ulug'bek Murtazoyevich**

Iqlim o'zgarishi davrida suv resurslarini integrallashgan holda  
boshqarishning adaptatsion-modernizatsiyalashgan mexanizmi  
(Qashqadaryo daryosi havzasi misolida).....3

**Тураев Улугбек Муртазоевич**

Адаптационно-модернизационный механизм комплексного  
управления водными ресурсами в условиях изменения климата  
(на примере бассейна реки Кашкадарья) ..... 21

**Turaev Ulugbek Murtazoevich**

Adaptation-modernization mechanism of integrated management of  
water resources during climate change (in the case of the Kashkadarya  
river basin) .....  
41

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works .....  
44

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**TO‘RAYEV ULUG‘BEK MURTAZOYEVICH**

**IQLIM O‘ZGARISHI DAVRIDA SUV RESURSLARINI  
INTEGRALLASHGAN HOLDA BOSHQARISHNING ADAPTATSION-  
MODERNIZATSIYALASHGAN MEXANIZMI  
(QASHQADARYO DARYOSI HAVZASI MISOLIDA)**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T1380 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ecoilm.uz](http://www.ecoilm.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muradov Shuxrat Odilovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Erkabayev Furqat Ilyasovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Razzakov Ruslan Eshqulovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.18/30.11.2022.T.153.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «26» oktabr soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100043, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor shohko'chasi, 7a uy. (tel: (71) 277-69-83; faks: (71) 277-89-22; e-mail: [eco\\_ilm@umail.uz](mailto:eco_ilm@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№4 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100043, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor shohko'chasi 7a uy. (tel: (71) 277-69-83; faks: (71) 277-89-22; e-mail: [eco\\_ilm@umail.uz](mailto:eco_ilm@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «12» 10 kuni tarqatildi.

(2024-yil «12» 10 dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**B.A.Pulatov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent

  
**L.N.Samiyev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashi kotibi, t.f.d., dotsent

  
**L.N.Samiyev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda suv resurslaridan oqilona foydalanish va samaradorligini oshirish uchun integrallashgan holda boshqarish va energiya-resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. BRMda ta'kidlanganidek "2030-yilga borib barcha darajalarda suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarishni ta'minlash" (2015, BMT ), 10-Butunjahon suv forumi (2024, Bali, 83-loyiha) deklaratsiyasida esa "Suv sifatini yaxshilash, oqova suvlarni tozalash va xavfsiz qayta foydalanish" bo'yicha aniq harakatlar qabul qilingan. Shu jihatdan qurg'oqchil hududlarda qo'shimcha suv sifatida yer usti va yer osti sho'r suvlarini mineralsizlashtirish, energiya-resurs tejamkor texnologiyalar va qurilmalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishga yo'naltirilgan resurs tejamkor usullar, inson faoliyatining turli sohalarida suvdan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va texnik qurilmalarning yangi ilmiy-texnologik yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, sanoat va kommunal xo'jalik oqova suvlarni kimyoviy, fizikaviy va biologik tozalash usullari asosida texnik qo'shimcha resursni hosil qilib qayta texnologik jarayonda foydalanish va qishloq xo'jaligida yangi texnika va usullarni joriy qilish yo'li bilan suv tejamkor texnologiyalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda suv tejamkor texnologiyalarni oqilona foydalanish, oqova suvlarni tozalab qayta texnologik jarayonlarga yo'naltirish, sug'orishda suv tejamkor texnologiyalarni va uskunalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasining 31-maqsadida, jumladan, "...suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 mlrd. m<sup>3</sup> suvni iqtisod qilish"<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifa belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, har bir ma'muriy tuman doirasida suv resurslaridan integrallashgan holda foydalanish va iqtisodiyot tarmoqlari uchun takomillashgan shakliy loyihalar tuzish, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalashgan qo'shimcha suvni shakllantiradigan qurilmalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmonlari va 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish masalalari bilan xorijda D.Kraff, A.D.Steinman, R.Klark, J.King, (AQSh), O.L.Yushmanov, V.V.Shabanov, I.G.Galyamina, I.I.Borodavchenko, I.N.Lozanovskaya, D.S.Orlov, A.B.Avakyan, V.M.Shirokov, G.V.Voropayev, I.A.Shiklomanov, B.B.Shumakov, V.I.Danilov-Danilyan, S.P.Bindra, A.Hamid, H.Salem, K.Hamuda, J.Friesen, L.R.Sinobas, L.Foglia, R.Lyudvig, H.H.Savenije, P.Van der Zaag (Niderlandiya), X.J.Hu, Y.C.Xiong, Y.J.Li, J.X.Wang (Xitoy), C.Furlong, K.Gan, S.De Silva (Avstraliya), P.Gourbesville (Fransiya), B.Mapani (Zambiya), L.Magole (Botsvana), H.Makurira (Zimbabve), A.El-Sadek (Misr), P.Meire (Belgiya), Sh.Yano (Yaponiya) kabi olimlar shug'ullanishgan. Qo'shimcha resurs sifatida suvni mineralsizlashtirish masalalari bo'yicha dunyo olimlaridan K.Ilham, M.Said, A.L.Kartashev, E.V.Safonov, B.C.Rovena, Z.Yuanhui, B.Hicham, B.Sakina, K.C.Verma, A.S.Kushvaha, Sh.Zangeneh, H.R.Lashgari, G.Petros, C.Massimo, C.Fabritsio va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Suv resurslarini mineralsizlashtirish maqsadida gazli gidratlar va ularning paydo bo'lish xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar M.Faradey, F.A.Kuznetsov, Dj.Pristli, J.Sh.Pelte, N.Karsten, G.Devi, E.V.Vrobleveski, X.V.Rozebom, Le Shatel'e, P.U.Villya, F.Vyoler, V.Levich, A.G.Betextin, S.Sh.Bik, Y.F.Makagon, V.N.Fomin, V.I.Kudryashov, V.F.Yeliseyev va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Respublikamizda suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish bo'yicha tadqiqotlar A.Z.Zaxidov, S.Sh.Mirzayev, I.X.Valiyev, N.R.Xamrayev, V.A.Duxovniy, V.Y.Chub, V.I.Sokolov, R.K.Ikramov, M.A.Yakubov, A.T.Saloxitdinov, Sh.O.Muradov, N.N.Mirzayev, N.Rahimov va boshqalar tomonidan bajarilgan. Suvni gazli gidrat texnologiyasi asosida mineralsizlashtirish masalalari bo'yicha G.Y.Volukonis, Sh.O.Muradov kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida havza misolida integrallashgan holda foydalanish texnologiyasi muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanib kelinayotgan bo'lsada, ammo alohida ma'muriy tumanlar va iqtisodiyot tarmoqlari hisoblangan alohida ekotizimlar bo'yicha takomillashgan hisobiy shakily loyihalarni ishlab chiqish va qo'shimcha resurs sifatida yer usti va yer osti suvlarini mineralsizlashtirish tadqiqotlari yetarlicha o'tkazilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" kafedrasining "Ekologiya va suv barqarorligi" ilmiy-tadqiqot markazi (institut Kengashining 2021-yil 6-avgustdagi 12-sonli qarori) rejasiga muvofiq

№ QMII-7/71 “Takomillashtirilgan suvni sho‘rsizlantirish qurilmasini yaratish” va № QMII-2/57 “Takomillashtirilgan suvni sho‘rsizlantirish qurilmasini tajriba nusxasini ishlab chiqish” mavzularidagi innovatsion loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning adaptatsion-modernizatsiyalashgan mexanizmini hamda qo‘shimcha resurs sifatida suvni mineralsizlashtirish texnologiyasini va qurilmasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilar:

Qashqadaryo daryosi havzasining suv xo‘jaligi va ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘yicha ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahliliy tadqiq etish;

tayanch gidropostlar bo‘yicha matematik statistika usulida gidrologik tahlil o‘tkazish;

ma‘muriy tumanlar bo‘yicha suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning adaptatsion-modernizatsiyalashgan hisobiy-shakli loyihalarini ishlab chiqish va suv xo‘jalik tenglamasini tahlil qilish;

qo‘shimcha resurs sifatida yer usti va yer osti suvlarini mineralsizlashtirish texnologiyasini va qurilmasining konstruksiyasini ishlab chiqish;

qurilma ishchi qismlarining parametrlarini va ish rejimlarini nazariy va tajribaviy asoslash;

qurilmani eksperimental sinovdan o‘tkazish va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qashqadaryo viloyatining yer usti va yer osti suvlari hamda qo‘shimcha suv resursini shakllantirish qurilmasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishni ifodalaydigan matematik statistika usullari va analitik bog‘lanishlar, qurilmaning konstruktiv parametrlari, ish rejimi va ko‘rsatkichlari hamda ularning o‘zgarish qonuniyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik statistika hisoblash qoidalari, suv xo‘jalik balans usullari, suvni mineralsizlashtirish jarayonida gazli gidrat hosil bo‘lishining fizik-kimyoviy qonuniyatlari va mavjud me‘yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarida kafolatli suv ta‘minoti va samaradorligini oshirish maqsadida suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning takomillashtirilgan shakli loyihalari zarur bo‘lgan yangi suv tejamkor texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan;

ilk bor, qo‘shimcha resurs sifatida energiya tejamkor va ekologik jihatdan samarali gazli-gidrat texnologiyasi asosida suvni mineralsizlashtirishning sanoat-tajriba qurilmasi yaratilgan (patent №IAP 7660);

ilk bor vertikal shakldagi uchta termostat sovitgich reaktordan iborat, azot bilan sovitish tizimi asosida ishlaydigan suvni mineralsizlashtirish qurilmasining yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

qurilmaning birinchi reaktorida gazli-gidrat hosil bo‘lishini tezlashtirish maqsadida gaz taqsimlovchi – barbatyor va aralashtirish moslamasi - rotor o‘rnatilib, texnologiya yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

suv resurslarini samarali boshqarish maqsadida Qashqadaryo daryosi havzasining ekologik va suv xo'jaligi rayonlashtirilishi takomillashtirilgan;

Qashqadaryo viloyati har bir ma'muriy tumanining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish asosida Qashqadaryo, O'radaryo va Amudaryo daryolari oqimining turli xil ta'minlanishida hozirgi davr, yaqin va uzoq kelajakka mo'ljallangan hisobiy-shakliy loyihalari ishlab chiqilgan;

chuchuk yer osti suvlari zaxiralari indeksini (SS-DTA) hisobga olgan holda, shahar va qishloq aholisining yer osti suvlari bilan yaqin va uzoq kelajakda yetarli darajada ta'minlanishi hisobiy isbotlangan;

suvni mineralsizlashtirish qurilmasining takomillashtirilgan maketi, loyihasi va konstruksiyasi yaratilgan;

birinchi marta Qashqadaryo daryosi havzasida suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish bo'yicha texnik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro muofiqligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan suvni mineralsizlashtirish qurilmasi sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tayanch gidropostlar bo'yicha ko'p yillik ma'lumotlarni matematik statistika usulida tahlil qilish asosida o'ziga xos suv ta'minlanganligi (P=50, 75, 85, 95%) aniqlangan va birinchi marotaba har bir ma'muriy tuman uchun suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning modernizatsiyalashgan shakliy loyihalari hisobiy tuzilgan va yaqin, uzoq kelajak uchun prognoz qilingan. Gazli gidrat hosil bo'lishining fizik-kimyoviy jarayonlari nazariyasi o'rganilgan. Takomillashgan mineralsizlashtirish texnologiyasining yangi konstruksiyasi ishlab chiqilishi asosida innovatsion qurilma yaratilgan va ixtiroga patent olingan.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, Qashqadaryo daryosi havzasi bo'yicha uzoq kelajak uchun ishlab chiqilgan SRIB hisobiy-shakliy loyihalari suv resurslaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish rejalarini tuzish uchun xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan suvni mineralsizlashtirishning modernizatsiyalashgan qurilmasi qo'shimcha suvni hosil qilishga yordam beradi. Metodik yondashuvlar, xulosalar va umumlashtirilgan ma'lumotlar tabiatshunoslikka tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning o'quv jarayoni sifatini oshirishga ko'maklashadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Iqlim o'zgarishi davrida suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning adaptatsion-modernizatsiyalashgan mexanizmi (Qashqadaryo daryosi havzasi misolida) bo'yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

Suvni integrallashgan holda boshqarishning takomillashgan hisobiy-shakliy loyihalari tasdiqlangan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 13-martdagi

03/17-907-son ma'lumotnomasi). Natijada uzoq kelajak uchun suvdan foydalanish prognoz qilingan va suv bilan ta'minlanishi bo'yicha takliflar berilgan;

Suvni mineralsizlashtirish qurilmasi "Qashqadaryo maxsus-temir beton buyumlari" MChJ da joriy qilingan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 13-martdagi 03/17-907-son ma'lumotnomasi). Natijada 1 m<sup>3</sup> suvni mineralsizlashtirishda 1600 so'm miqdorida mablag' tejashga erishilgan;

Mineralsizlashtirish qurilmasini ishlab chiqarish uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari "Qashqadaryo maxsus-temir beton buyumlari" MChJ ga topshirilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 13-martdagi 03/17-907-son ma'lumotnomasi). Natijada, takomillashtirilgan suvni mineralsizlashtirish qurilmalarini ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari 9 ta xalqaro va 20 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlar materiallarida 8 ta tezis chop qilingan, EHM uchun 2 ta dasturiy mahsulotga guvohnoma (DGU №00873 va 14347) va 1 ta ixtiroga patent ("Suvni mineralsizlashtirish usuli" № IAP 7660) olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 109 sahifani tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning amaliyotda joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Qashqadaryo daryosi havzasining tabiati va suv resurslari**" deb nomlangan **birinchi bobida** Qashqadaryo daryosi havzasining qisqacha fizik-geografik tavsifi, iqlim sharoiti va uning o'ziga xos xususiyatlari, suv resurslari va gidrografik tarmoqlari: yer usti va yer osti suvlari tahlili bo'yicha ma'lumot berilgan.

Daryo va barcha suv irmoqlaridan o'rtacha yillik suv hajmi yog'ingarchilik kam bo'lganda 600 mln. m<sup>3</sup> ni va yog'ingarchilik yaxshi kelganda 1,9 mlrd. m<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Jami suv omborlarining suv sig'imi 2570,75 mln. m<sup>3</sup> ga teng. Amudaryodan olinadigan o'rtacha suv miqdori 3,3 mlrd. m<sup>3</sup> dan oshadi. Zarafshon daryosidan olinadigan suv qariyb 400 mln. m<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Havzaning umumiy o'rtacha suv sarfi 51,5 m<sup>3</sup>/sek ga va tog'li qismida oqim moduli o'rta hisobda 1 km<sup>2</sup> da 6,2 l/sek ga teng. Qashqadaryo va uning irmoqlarining suvlari butunlay

sug'orishga sarflanadi. Hozirgi paytda viloyatning sug'oriladigan maydoni 514 ming gektardan (2023-yil) ko'proqni tashkil etadi.

Viloyat aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash va qisman sug'orish uchun S.Sh.Mirzayev tomonidan 6 ta yer osti suv konlari aniqlagan (1-rasm).

Qashqadaryo viloyatining suv resurslarini va ekologik holatini e'tiborga olib, mavjud tabiiy-suv xo'jalik rayonlashtirishni ekologik-suv xo'jalik rayonlashtirish (1-rasm) deb nomladik va ayrim o'zgartirishlar kiritdik. Bu o'zgarishlar Chiroqchi tumani ikki tumanga bo'linishi va Ko'kdala tumanining o'rta rayonga qo'shilishi bilan izohlanadi.



**1-rasm. Qashqadaryo viloyatini ekologik-suv xo'jalik rayonlashtirish va yer osti suv konlarining joylashish xaritasi.**

Ekologik-suv xo'jalik rayonlarda suv resurslaridan oqilona foydalanishni aniq tasavvur qilish uchun gidrologik tahlilni matematik statistika usulida amalga oshirish va mavjud yer osti suvlarini o'rganish talab etildi.

Viloyatda suvdan samarali foydalanish holatini ifodalash O'zbekiston va ayrim xorijiy davlatlarning tajribasi asosida suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishni o'rganishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“Suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning dunyo va O'zbekiston tajribasi”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning (SRIB) mazmuni va mohiyati, dunyo va O'zbekiston tajribasi, Markaziy Osiyo davlatlararo suv siyosati bo'yicha bajarilgan ishlar, ilmiy-amaliy loyihalar batafsil tahlil qilindi.

Ma'lumki, ilk bor suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning asosiy tamoyillari 1992-yili Dublindagi suv va atrof-muhit bo'yicha xalqaro konferensiyada qabul qilingan. Keyin “Dublin tamoyillari”ga asoslanib, SRIB konsepsiyasi 1992-yil Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning “Atrof-muhit va

barqaror rivojlanish” mavzusidagi konferensiyasida “XXI asr kun tartibi”da qabul qilingan.

SRIB – bu jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida tabiiy muhitga minimal zarar yetkazish bilan natijalarni optimallashtirish maqsadida nafaqat suv, balki boshqa tegishli resurslarning ham keng ma’noda muvofiqlashtirilgan rivojlanishiga va boshqarilishiga hissa qo’shadigan jarayon.

H.H.G.Savenije va P.Van der Zaag (2008) ta’limoti bo’yicha, SRIB rivojlanishining to’rtta asosiy bosqichi mavjud. Ular uzluksiz holda sodir bo’ladi va ahamiyatli ravishda ilgari lab boradi. Qulaylik uchun har bir “davr” alohida tahlil qilingan:

1) tarmoqli yondashuv 1820–1950-yillarni; 2) kooperativ (hamkorlik) yondashuv 1960–1970-yillarni; 3) suv resurslarini boshqarish davri 1980–1990-yillarni; 4) suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish davri 1990-yillardan hozirgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida (Avstraliya, Rossiya, Fransiya, Ispaniya, Angliya, Qozog’iston, Ukraina) suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish havzalar prinsipi asosida, ayrim davlatlarda (AQSh, Italiya) soha bo’yicha, Niderlandiya va qisman Hindistonda tuman darajasida amalga oshirilmoqda.

BMT ma’lumotlariga asosan (2021-yil), dunyo mamlakatlari doirasida, O‘zbekiston SRIB 6.5-maqsadiga erishishiga ko‘ra cheklangan, amalga oshirish darajasi o‘rtacha past va joriy qilish darajasi 48 foiz ga teng, bu ko‘rsatkichlarni 2030-yilgacha 100 foizga yetkazish darkor. Suvdan foydalanish samaradorligi anchagina rivojlangan davlatlardan (AQSh - 44; Germaniya - 112; Niderlandiya - 90; Yaponiya - 57; Xitoy - 24; Rossiya - 19) farqlanadi - 1,4 dollar/m<sup>3</sup>. Suv resurslariga ta’sir darajasi 169 foizni tashkil etadi, bu albatta juda yuqori ko‘rsatkich.

Markaziy Osiyo mintaqasida Tojikiston (2000), Qozog’iston (2003), Turkmaniston (2003), Qirg’izistonda (2005) Suv kodeksi va O‘zbekistonda (1993) “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan va ularda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari ko‘rilgan.


Respublikamizda 2002-yildan buyon xalqaro institutlar va donor mamlakatlar ko‘magida GWP CACENA texnik qo‘mitasi va Orolni qutqarish xalqaro jamiyati, Amudaryo deltasida NATO loyihasi va Farg‘ona vodiysidagi “SRIB - Farg‘ona” SIDA loyihasi (2001-2010), “O‘zbekistonning drenaj loyihasi” (1996-1999), “Zarafshon daryosi havzasi uchun suv resurslarini integral boshqarish va suv tejamkorligi rejasi” (2010-2015) loyihasi (BMT TD), “Farg‘ona-Zarafshon vodiylarida suv resurslarini boshqarish” loyihasi (Shveysariya rivojlanish va hamkorlik agentligi, 2012-2015) bajarilgan va “O‘zbekistonda havzaviy rejalashtirish bo’yicha suv xo‘jaligi tashkilotlarining salohiyatini oshirish” GIS-CAREC (2020-2025) loyihasi bajarilmoqda.

Biroq mavjud ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon O‘zbekistonda ham, Markaziy Osiyoda ham boshqa rivojlanayotgan davlatlardagi kabi mamlakatlarning boshlang‘ich iqtisodiy sharoiti va imkoniyatlari, shuningdek suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning mazmun-mohiyatini to‘liq

anglab yetmaslik va uni turlicha izohlash sabab muvaffaqiyatli amalga oshirilmayapti.

Shunday qilib, respublikamizda, ayniqsa reprezentativ qurg‘oqchil Qashqadaryo viloyatining yer usti suv zaxiralari cheklanganligini inobatga olib, integrallashgan holda boshqarishni har bir ma‘muriy tumanlar kesimida hisoblanmasa, suv resurslaridan samarali foydalanishni baholab bo‘lmaydi va barqaror rivojlanish kriteriyalari – iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik holatni yaxshilash mumkin emas.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo viloyatida suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish”** deb nomlangan **uchinchi bobida** matematik statistika usullarida tanlangan tayanch gidropostlar (Qashqadaryo daryosining Chiroqchi va Qarshi gidropostlari, Amudaryo daryosining Kerki gidroposti va G‘uzordaryoning Pachkamar suv omboriga quyilishi) bo‘yicha gidrologik ko‘rsatkichlarning tahlili bajarilgan va tavsifiy yillar uchun yer usti suvlarining hajmi aniqlangan, viloyatning suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish hisobi yuritilgan, ilmiy-amaliy yondashuvlar o‘rganilgan, kommunal-maishiy xo‘jalikda (KMX), agrosanoatda, chorvachilik, sanoatda suv ta‘minoti va oqova suvlar miqdori, sifatlari, suv xo‘jaligi balansi hisoblari bajarilgan.



**2-rasm. Ta‘minlanganlik nazariy egri chizig‘ini empirik egri chizig‘i bilan taqqoslash ( $C_s=2,5C_v$ ). (Chiroqchi gidroposti).**


( $C_v=0,26$ ,  $C_s=0,2$ ) va O‘radaryoning Pachkamar ( $C_v=0,68$ ,  $C_s=2,06$ ) gidropostlari bo‘yicha bajarilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanlab olingan tayanch gidropostlarning ko‘p yillik gidrologik ma‘lumotlarining matematik tahlili o‘ta ishonchli hisoblanadi. Demak, suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish hisoblarini olib borishga muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Taniqli soha olimlari va mutaxassislar, professorlar R.K.Ikromov (2003), E.I.Chembarisov (2003), I.P.Svinsov (2005), N.Rahimov va V.Ahmadjonov (2019), akademik A.P.Lepixin (2024) suv va yer resurslaridan foydalanish masalalarini respublika, viloyat, tuman va boshqa ma‘muriy chegaralarda hal etish kerakligini ta‘kidlashgan. AQSh, Italiya, Niderlandiya va Hindiston tajribasini inobatga olib, Qashqadaryo viloyatining har bir ma‘muriy tumanlari bo‘lmish ekotizimlar bo‘yicha, asosiy iqtisodiyot tarmoqlarini inobatga olib, suv resurslarini

integrallashgan holda boshqarish shakliiy loyihalari hisobiy tuzilgan va bular asosida quyidagi tarmoqlarning tahlili bajarilgan.

**Kommunal-maishiy xo‘jalikda** hozirgi zamon (2021 y), yaqin (2026 y.) va uzoq kelajak (2036 y.) uchun aholi sonini aniqlab, barqaror rivojlanish ssenariysidan kelib chiqib, o‘rtacha suv iste‘moli va oqova suvlar me‘yori (l/sut) hisoblangan. Qashqadaryo viloyati har bir ma‘muriy tumanlari aholisining ichimlik va oqova suv miqdori prognoz qilingan (3- rasm).



**3-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida turli davrlar uchun kommunal-maishiy xo‘jalik suv iste‘moli va oqova suvlar hajmi.**

Gistogrammadan ko‘rinib turibdiki, barcha tumanlarda suv iste‘mol hajmi kamayish tendensiyaga ega. Suv ta‘minotining ko‘proq qismi Qarshi shahriga, Shahrisabz, Koson va Chiroqchi+Ko‘kdala tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda. Barcha tumanlarda oqova suvlarning miqdori kelajakda ko‘paygani kanalizatsiya tizimining ishlashi bilan bog‘liq. Qarshi shahrida oqova suvlarning uzoq kelajakda kamayishi suv iste‘moli me‘yori jahon darajasida olinganligidan dalolat beradi (120 l/sut).

Kommunal-maishiy xo‘jalik tomonidan oqova suvlar sifatini ta‘riflash uchun O‘zbekiston davlat standarti (“Ichimlik suvi” gigiyenik talablar va sifatini nazorat qilish O‘zDSt 950:2011)ni inobatga olib, suv tarkibidagi asosiy komponentlarning bir kishi uchun to‘g‘ri keladigan miqdori ma‘lum formula bo‘yicha hisoblangan. Hozirgi davr (2021-yil)da Qarshi shahri bo‘yicha  $C_{sh} = 0,44$  g/l; yaqin kelajakda (2026-yil)da  $C_{sh} = 0,406$  g/l va uzoq kelajakda (2036 y.)  $C_{sh} = 0,602$  g/l ga teng. Qashqadaryo viloyati tumanlarida mos ravishda:  $C_q = 29,79$  g/l;  $C_q = 1,3$  g/l;  $C_q = 1,35$  g/l. Ko‘rinib turibdiki, shahar oqova suvlarining sifati uncha o‘zgarmagan, lekin tumanlarda kamaygan, bu kelajakda oqova suvning hajmi ko‘payishi bilan bog‘liq.

Tadqiqotda viloyat oqova suvlar tarkibidagi chiqindilarning umumiy minerallashuvini hozirgi davr  $C_{k.m.x} = 1,93$  g/l; yaqin kelajak  $C_{k.m.x} = 1,1$  g/l va uzoq kelajak  $C_{k.m.x} = 1,23$  g/l uchun aniqlangan. Raqamlardan ko‘rinib turibdiki, kelajakda oqova suvlarning minerallashuv darajasi kamaygan. Jarayon umumiy

oqova suvlar miqdorining ko'payishi va tumanlarda oqova suvlarning minerallashuvi kamayishi bilan bog'liq.

Qashqadaryo viloyatida foydalanish mumkin bo'lgan chuchuk yer osti suvlari sarfi S.Sh.Mirzayevning tadqiqoti bo'yicha 14,412 m<sup>3</sup>/sek ni tashkil qiladi. Demak, me'yor 120 l/sut bo'lganda, 10,4 mln. kishiga yetadi. O'rtacha aholining o'sishi 52 ming kishi bo'lganda, ta'minlanish 134,5 yilga teng bo'ladi.


Yaponiya olimlari SS-DTA (soha suv iste'molining mavjud suv zaxirasiga nisbati indeksi) indeksi ekologik omillarni va suvga bo'lgan talabni hisobga olgan holda, har bir iqtisodiyot tarmog'i uchun aniqlanishi zarur, deb hisoblashadi. Qashqadaryo havzasi bo'yicha kommunal-maishiy xo'jalikda, har bir davr uchun hisoblanganda, viloyatda SS-DTA=30-26 foiz, barcha tumanlarda uzoq kelajak uchun ham yer osti chuchuk suvlar yetarli. Chunki mavjud resurslarning solishtirma suv iste'moli jahon talabiga tenglashtirilganligi ko'zda tutilgan.

Qashqadaryo viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi ma'lumotlari asosida Qarshi shahridan chiqadigan oqova suvning ifloslantirish indeksi (9 ta modda bo'yicha) SII=1,51 teng. Demak, suvning ifloslanishi o'rtacha va 3 sinf toifasiga kiradi.

Iste'moldagi qaytmaydigan suv qismlarining umumiy suv ta'minotiga nisbatan qaytmas koeffitsiyenti hisoblangan va shuni ta'kidlash joizki, hozirgi davrda qaytmas suvlarning hajmi nihoyatda katta ( $K_p = 0,9-0,99$ ). Bu holat tumanlarda kanalizatsiya tizimining yo'qligidan dalolat beradi. Ko'rinib turibdiki, faqat Qarshi shahrida kanalizatsiya tizimi mavjudligi tufayli holat talab darajasida ( $K_p=0,38$ ). Kelajakda kanalizatsiya tarmoqlarini qurish bilan oqova suvlarning miqdori oshadi, holat o'rtacha va qoniqarli bo'lishi mumkin ( $K_p = 0,4-0,1$ ).

Asosiy suv iste'molchisi bo'lmish viloyat **qishloq xo'jaligining** ko'p yillik tahliliga asosan (Excel dasturi asosida), 2030-yilga borib sug'oriladigan maydonlar 530 ming ga ni tashkil etishi mumkin.

Gistogrammaning (4-rasm) tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi zamon suv ta'minotiga nisbatan kelajakda suv ta'minoti o'zgargan. Misol: Kitob, Yakkabog', Qamashi, Dehqonobod, G'uzor, Nishon va Muborak tumanlarida kelajakda suv ta'minoti hajmi oshgan



4-rasm. Qishloq xo'jaligida sug'orishga olingan va oqova suvlar miqdori.

Suv ta'minotiga nisbatan hozirgi vaqtda oqova suvlarning miqdori 30-35 foizni tashkil etgan bo'lsa, barqaror rivojlanish ssenariysi bo'yicha yaqin kelajakda 20 foizni va uzoq kelajakda 10 foizni tashkil etishi darkor. Tahlillarga ko'ra, tumanlarda sug'orish maydonlarida oqova suvlarning uncha katta o'sishi kuzatilmagan. Bunga sabab sohada suv tejamkor texnologiyalar (tomchilab, yomg'irlab, yer osti sug'orish va h.k.)ning qo'llanishidir. Bu barqaror rivojlanish ssenariysiga to'g'ri keladi.

**Chorvachilikda suv ta'minoti miqdori va sifatini hisoblash.** Har xil chorva mollari uchun suv iste'moli quyidagi formula asosida hisoblangan:


$$W_{\text{chor}} = \frac{N_{\text{ch}} * W_{\text{ch}} * 365}{1000} \quad (1)$$

Bu yerda:  $N_{\text{ch}}$  – chorva mollari soni;  $W_{\text{ch}}$  – chorva moliga sarf qilinadigan suv me'yori, l/sut; 365 – bir yildagi kunlar soni.

Chorvachilik majmuasida hosil bo'ladigan oqova suvlar me'yori quyidagi formula orqali aniqlangan:

$$W'_{\text{chor}} = N_{\text{ch}} * K_{\text{ch}} \quad (2)$$

Bu yerda:  $K_{\text{ch}}$  – bir hayvon turidan chiqadigan oqova suvlar me'yori, l/sut.



**5-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlarida chorvachilik majmuasida suv sarflari va oqova suv miqdori.**

Gistogrammadan (5-rasm) ko'rinib turibdiki, tumanlarda barcha chorva mollarning (qoramol, qo'y-echki, ot va parranda) soni o'sishi bilan suv iste'moli va oqova suvlar miqdori oshmoqda. Bu hisoblar xalqaro me'yorlar asosida bajarilgan. Shu munosabat bilan, kelajakda, iqlim o'zgarishini inobatga olib, solishtirma me'yorlarga aniqlik kiritish lozim, deb hisoblaymiz.


Oqova suvlar hajmini bilgan holda, o'rtacha minerallasuv quyidagi formula orqali hisoblangan:

$$S_{O/R} = C_m + \frac{W'_{\text{qoramol}} * S_{\text{qoramol}} + W'_{\text{qo'y}} * S_{\text{qo'y}} + W'_{\text{ot}} * S_{\text{ot}} + W'_{\text{parranda}} * S_{\text{parranda}}}{W'_{\text{qoramol}} + W'_{\text{qo'y}} + W'_{\text{ot}} + W'_{\text{parranda}}} \quad (3)$$

Bu yerda:  $W'_{qoramol}$  – chorva mollarining alohida turlari bo'yicha chiqadigan oqova suvlar hajmi, mln.  $m^3$ ;  $S_{qoramol}$  – alohida chorva mollari turidan chiqadigan oqova suvlardagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori, g/sut;  $C_m$  – tabiiy suvlarning minerallasuvi (suv ta'minoti manbasidagi muhit), g/l.

Hisoblardan shunday qonuniyatni ko'rish mumkinki, chorvachilikdan chiqayotgan oqova suvining miqdori oshishi bilan o'rtacha minerallasuv darajasi pasayadi va uning miqdori 2920,1 g/sut (G'uzor) dan 5221 g/sut (Qamashi) gacha o'zgaradi. Viloyat bo'yicha hozirgi davrda barcha chorva uchun 78,5 mln.  $m^3$  suv sarflansa, undan 90 foiz – 70,65 mln.  $m^3$  ni tashlanma oqova suvlar tashkil etadi. Bu, o'z navbatida, sug'orishga olingan (3,7342 mlrd.  $m^3$ ) suvning 2,1 foizi. Sug'orishdan tashlanma oqova suvlar 30 foiz bo'lsa, chorvadan 6,3 foiz. Yaqin va uzoq kelajak uchun mos ravishda: 19,5, 10,8 va 10; 26,2 foiz. Shu davrda chorvaga olinadigan o'rtacha suv miqdori sug'orishga olingan suv miqdorining 2,5 foizi va tashlanma oqova suvlarning 15 foiz ni tashkil etadi. Albatta, agar hozirgi davrda viloyat bo'yicha chorva 78,5 mln.  $m^3$  toza chuchuk suv iste'mol qilsa, bu ko'rsatkich yaqin kelajakda 88,26 mln.  $m^3$  va uzoq kelajakda 107,93 mln.  $m^3$  ni tashkil etadi. O'z navbatida, kelajakda tashlandiq oqova suvlarni mineralsizlashtirib, sug'orishda foydalanish lozim.

**Sanoat korxonalarining** bugungi holati asosida yaqin va uzoq kelajakda rivojlanish prognozlarining yo'qligini inobatga olib, joriy yildagi raqamlar bilan tahlil qilingan. Viloyat sanoatida jami 415,2 mln.  $m^3$  suv foydalanilsa, 79,02 mln.  $m^3$  oqova suv shakllanadi, bu 19,5 foizni tashkil etadi.



**6-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlarida sanoatda suv sarflari va oqova suv miqdori.**

Gistogrammada ko'rinib turibdiki, Shahrisabz, Kitob, Dehqonobod va Yakkabog' tumanlarida suv ta'minotining ko'pligi tog' noruda mahsulotlari ishlab chiqarilishi rivojlanganligi bilan bog'liq ( $1 m^3/340 m^3$  suv sarflanadi). Nishon tumanida mavjud Tallimarjon IES, noruda mahsulotlari, neft-gaz konlari va o'rta-kichik korxonalar evaziga suv iste'moli miqdori katta. Qarshi shahrida 10 dan ortiq o'rta va kichik sanoat korxonalar mavjudligi yuqori suv ta'minotiga ta'sir etadi. Qamashi tumanida noruda mahsulotlarini ishlab chiqaradigan va o'rta-kichik korxonalar mavjud.

